

# **TerDUs press-tur va matbuot anjumanı o'tkazildi**



Press-tur davomida 30 nafardan ortiq jurnalist va blogerlar yangi barpo etilgan binolarda ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va talabalar uchun yaratilgan zamonaviy sharoitlar bilan yaqindan tanishishdi.

Viloyatda yetmish yillik tarixga ega Termiz davlat universitetida 13 ta fakultet, 44 ta kafedra mavjud bo'lib, ularda 700 dan ortiq professor-o'qituvchi 20 mingdan ziyod talabaga ta'lif bermoqda. Pedagoglarning 250 dan ortig'i ilmiy darajaga ega.

Matbuot anjumanida TerDU rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor Abduqodir Toshqulov hamda sohalar bo'yicha prorektorlar ishtirokchilarni qiziqtirgan barcha savollarga batafsил javob berishdi.

Ta'kidlanganidek, 2024-2025 o'quv yili uchun bakalavriat, magistratura, ikkinchi va undan keyingi oliy ta'lif mutaxassisliklariga jami 4204 nafar qabul kvotasi rejalashtirilgan. Joriy o'quv yili uchun bakalavriatga 19 ta yangi ta'lif yo'nalishi

qo'shilgan.

Tadbir davomida universitetda ilm-fan, innovatsiya va texnologiyalar yutuqlari asosida sifatli ta'lif jarayonini tashkil qilish, pedagog xodimlarining mehnat samaradorligini belgilovchi KPI tizimining afzalliklari, talabalarni yotoqxona va ijara xonadonlarga joylashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.